O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.....	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida).....	1225
Xoshimova Sevara Baxromovna	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari	1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана	1236
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili.....	1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan	1245
Ismatova Mahliyo	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xodjiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
Abdurakhimova Dilara Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlarini.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Improvement of inventory accounting audit based on international standards.....	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ichiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi	



Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Rahmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashvna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий	1527
Едгоров Сардорбек Самадович	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Baxromovna	
Xo'jaligini soliqaqqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1539
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field.....	1544
Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане.....	1548
Юсупов Одил Омонович	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari.....	1560
Madjitova Maftuna Kamiljon qizi	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari.....	1564
Ziyatova Sitora Baxtiyorovna	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
Fariza Xoldarova	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati.....	1580
Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari.....	1586
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar.....	1590
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili.....	1595
Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budjet jarayonini takomillashtirish.....	1602
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025).....	1612
Mamataliev Bobur Saidnazar ugli	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni.....	1617
Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
Xusinov I.I.	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari.....	1630
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
Oripova Saodat Mirfotikh kizi	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
Halilov Sherzod Akhmatovich	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
Kodir Gulomov	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari.....	1664
Ataniyazova Maksuda Baltabayevna	
Beqarorlik sharoitida korxonada ishlab chiqarish potensialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	1674
Musinov Dilshod Sultanovich	



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1680
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta’minlash mexanizmlari.....	1686
Sattorova Nasiba G’anijon qizi	
Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta’siri.....	1690
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....	1694
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonasi faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatining o’rni va roli.....	1701
Xudoyorova Mehrangiz Murodovna	
Xorijiy kapital va uning milliy iqtisodiyotdagi o’rni: nazariy-metodologik asoslar.....	1705
Abdullayev Zoxid Xolxo’jayevich	
Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlari.....	1710
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
Valyuta-moliya munosabatlari va globallashtirish jarayonlarining iqtisodiy mohiyati	1714
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Jo’rabekova Xumora Muzaffar qizi, Yuldasheva Umida	
Tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb qilish va ularning jozibadorligini oshirish strategiyalari: iqtisodiy va raqamli yondashuvlar	1719
Xakimov Zoxid Norbo’tayevich	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1725
Kuliboev Azamat Shonazarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali sifatini oshirishda ta’limning ahamiyati.....	1731
M.Ostanova	
“Yashil” iqtisodiyotga o’tish davrida hududlar soliq salohiyatini va ularni oshirish masalalari	1736
Baxtiyorov Umid Kaxramon o’g’li	



“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH DAVRIDA HUDUDLAR SOLIQ SALOHIYATINI VA ULARNI OSHIRISH MASALALARI

Baxtiyorov Umid Kaxramon o‘g‘li

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universitetining “Iqtisodiyot va boshqaruv” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida soliq salohiyatini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘tishni ta‘minlash soliq salohiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Maqolada “yashil iqtisodiyot” atamasini aniqlashga doir ilmiy yondashuvlar hamda uning soliq salohiyati bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘tishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida energiya hamda resurslarni tejash masalalari yoritiladi. “Yashil” iqtisodiyot va “yashil” soliqqa tortishga o‘tishda soliq salohiyatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, strategiya, ishlab chiqarish, soliq salohiyati, davlat budjeti subsidiyalari, soliq imtiyozlari, soliq ma‘muriyati, texnologiya, innovatsiya, investitsiya, ta‘lim.

Abstract: This article addresses the issue of enhancing tax potential in the context of transitioning to a green economy. The shift toward a green economy and the promotion of green growth are closely linked to tax potential. The article discusses scientific approaches to defining the term “green economy” and examines its relationship with tax potential. It analyzes efforts to increase the effectiveness of Uzbekistan’s Strategy for Transition to a Green Economy, including support for green and inclusive economic growth, the broader adoption of renewable energy, and energy and resource efficiency across all sectors. The paper identifies priority areas for strengthening tax potential in the context of green economy transformation and green taxation.

Key words: green economy, strategy, production, tax potential, state budget subsidies, tax incentives, tax administration, technology, innovation, investment, education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения налогового потенциала в условиях перехода к «зелёной» экономике. Переход к «зелёной» экономике и обеспечение «зелёного» роста тесно связаны с налоговым потенциалом. В статье представлены научные подходы к определению понятия «зелёная экономика» и его взаимосвязь с налоговым потенциалом. Проанализированы меры по повышению эффективности реализации стратегии перехода Республики Узбекистан на «зелёную» экономику, обеспечению «зелёного» и инклюзивного экономического роста, а также расширению использования возобновляемых источников энергии и ресурсосбережения во всех секторах экономики. Определены приоритетные направления повышения налогового потенциала при переходе к «зелёной» экономике и «зелёному» налогообложению.

Ключевые слова: зелёная экономика, стратегия, производство, налоговый потенциал, государственные субсидии, налоговые льготы, налоговое администрирование, технологии, инновации, инвестиции, образование.

KIRISH

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va milliy iqtisodiyotni isloh qilish sharoitida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, xususiy mulk daxsizligini kafolatlash bo‘yicha samarali chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta



ishlashni tashkil etish hamda hududlarning soliq salohiyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyati muhim o'rin egallaydi. Soliqlar davlat daromadlarining asosiy manbai hisoblanib, ular xo'jalik yurituvchi subyektlar va umuman davlat tomonidan amalga oshirilayotgan turli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni, davlat investitsiyalarini hamda boshqa muhim loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan mamlakatda soliq salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan zarur tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar yaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida quyidagilar belgilangan:

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga yetkazish;

elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 30 foizdan oshirish;

sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfini 30 foizga kamaytirish, shu jumladan, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni kengaytirish hisobiga.

Mamlakatimizda moliya, budjet va iqtisodiy jarayonlarning barqaror rivojlanishiga erishishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlarni o'zaro bog'lash orqali O'zbekistonni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ta'minlash murakkab, ammo muhim vazifadir. Bu uch komponent jamiyat oldiga adolatni ta'minlash, kam ta'minlangan qatlamlarga manzilli yordam ko'rsatish kabi mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda.

Professor S.K. Xudoyqulov va L.B. Bo'ronovanning "Hududlarning moliyaviy salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarning tasnifi va ahamiyatligi" nomli maqolalarida hududlarning moliyaviy salohiyati — bu ularning mavjud moliyaviy resurslari (soliq salohiyati, mahalliy budjetlar daromad bazasining mustaqilligi va nomarkazlashuvi, aholi mehnat salohiyati) orqali tavsiflanib, undan foydalanish darajasi respublika budjetidan hududlar budjetiga ajratiladigan transfertlar miqdorida ifodalanadi [2].

X.A. Jo'rayev esa "Hududlarda soliq salohiyatini oshirishning nazariy asoslari" nomli maqolasida "soliq salohiyati" kategoriyasi qo'yiladigan vazifalarga bevosita bog'liq ekanini ta'kidlab, resursiy, fiskal va budjetlararo yondashuvlarni ularning tatbiq sohasi asosida tavsifa etadi [3].

Professor Sh.A. Toshmatov esa soliqlarni darajalar bo'yicha taqsimlash, hududiy salohiyatni baholash va mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarurligini asoslaydi [4].

Iqtisodchi olimlar A.U. Burxanov va X.A. Qurbonovlar o'z maqolalarida kichik biznesni rasmiylashtirish orqali budjet tushumlarini oshirish muhimligini alohida ta'kidlaydi [5].

Bozorova L.A. esa budjet daromadlari barqarorligini ta'minlashda soliq salohiyatining prognozlash va rejalashtirishdagi rolini yoritadi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, yashil iqtisodiyot iqtisodiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategiya, konsepsiya va tadbirlar majmuasi bo'lib, uning negizida soliq salohiyatini oshirish uchun qulay muhit yaratish yotadi.

Shuningdek, 2022-yil 30-dekabrda PF–287-sonli Prezident farmoniga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha qadar soliq solishning tabaqalashtirilgan tizimi joriy etildi. Unda:

5-toifadagi tumanlarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun foyda, aylanma, ijtimoiy soliqlar — 1 foiz;

mol-mulk va yer soliqlari — hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilanadi;

yakka tartibdagi tadbirkorlar daromad solig'i to'lovidan ozod etiladi;

4-toifadagi tumanlarda aylanmadan olinadigan soliq bazaviy stavkasi — 3 foiz etib belgilanadi.

Bundan tashqari, "yashil" iqtisodiyotga o'tishda soliq tizimini takomillashtirishga doir quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilanmoqda:

ifloslantiruvchi faoliyatdan olinadigan soliq yukini oshirish;

ekologik toza texnologiyalar va infratuzilmalarga investitsiya jalb qilish;

yashil budjet metodologiyasini amaliyotga tatbiq etish;

ekologik xavfsiz sanoat korxonalarini uchun imtiyozlar va subsidiyalar yaratish.

Xulosa o'rnida, mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasini amalga oshirishda soliq salohiyatini ilmiy asoslangan, tizimli yondashuv asosida oshirish — iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.



TADQIQOT METODOLIGIYASI

Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va uning ahamiyatligi darajasini belgilashda ilmiy bilishning fundamental metodologiyasi asosida shakllangan yondashuv qo'llanilgan bo'lib, induksiya va deduksiya, dialektik birlik, nazariya hamda amaliyotning o'zaro bog'liqligi, taqqoslash va o'xshashlik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv asosida iqtisodiy-statistik hamda tuzilmaviy-dinamik tahlil usullari qo'llandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarning soliq salohiyati ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, uni samarali oshirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatlarni hisobga olish zarur. To'g'ri boshqaruv va ushbu sohalaridagi o'zgarishlarga moslashuv mintaqalarda soliq tushumlari miqdorini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Mamlakatda davlat budjetini shakllantirishda soliq salohiyati budjetni to'ldirishning asosiy vositasiga aylanishi lozim. U iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shishi, innovatsiyalar hamda barqaror rivojlanishni rag'batlantiruvchi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini shakllantirish va ularni barqaror moliyalashtirishni ta'minlashi zarur.

Davlat tomonidan soliq tizimini optimallashtirishga intilish, shuningdek, jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan samarali budjet tizimini yaratishda barcha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, soliq salohiyatini rivojlantirish mamlakat barqarorligi va farovonligini ta'minlashning strategik vazifasiga aylanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bizning nazarimizda, soliq salohiyati bir tomondan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi.

1-jadval. 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2026–2027-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar

T/r	Ko'rsatkichlar	2025 yil prognozi	Maqsadli mo'ljallar	
			2026 yil	2027 yil
1.	Yalpi ichki mahsulot (YalM), trln so'm	1 630	1 866	2 125
2.	Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, %	6,0	6,1	6,3
3.	Iste'mol narxlari indeksi (dekabrga nisbatan), %	7-8	5-6	5
4.	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'ati, %	6,1	6,2	6,1
5.	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish sur'ati, %	4,1	4,2	4,3
6.	Bozor xizmatlari ko'rsatish sur'ati, %	14,5	15,1	15,0
7.	Qurilish ishlarining o'sish sur'ati, %	14,2	10,2	7,3

Agar yuqorida aks ettirilgan jadvaldagi 2025–yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2026–2027–yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlarga e'tibor qaratisa, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 2025–yilda 6,0 foizni tashkil etib, 2027–yilga kelib 6,3 foizga oshishi rejalashtirilgan. Bu holat ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi hamda boshqa asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasida o'z ifodasini topadi.

Soliq salohiyati, bir tomondan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda, ikkinchi tomondan, soliq to'lovchining soliqqa tortish shakllari yuzasidan tanlov imkoniyatini ham qamrab oladi. Bu esa, mamlakatda amalda bo'lgan soliq siyosatining samaradorligi hamda soliq ma'muriyatchiligi natijadorligini aniqlash imkonini beradi.

Hududlarning soliq salohiyatini oshirish masalalari doirasida, bir tomondan, hududiy soliq salohiyati ushbu hudud tarkibidagi barcha ishlab chiqarish korxonalarining soliq salohiyatlari, jumladan, ularning soliqqa tortish bazalari bilan bevosita bog'liq asosiy ko'rsatkich sanaladi. Shuningdek, mazkur korxonalarda soliq imtiyozlarining mavjud emasligi va soliqlardan bo'yin tovlash holatlarining oldi olingan taqdirda, ularning soliq salohiyati yanada yuqori darajada bo'lishi mumkin.

Ikkinchi tomondan, hududlarning soliq salohiyati to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilarning moliyaviy barqarorligi hamda samaradorlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa, budjet daromadlarini ko'paytirishda va davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish, tadbirkorlik subyektlari va umuman davlatning soliq salohiyatini oshirish borasida Davlat budgetini to'ldirishga xizmat qiluvchi tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda va amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda. Bizning fikrimizcha, ushbu yo'nalishdagi asosiy faoliyat xo'jalik yurituvchi subyektlar, tashkilotlar va davlatning manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda yo'lga qo'yilishi zarur. Shu bilan birga, asosiy e'tibor "yashil o'sish"ga o'tish jarayonidagi iqtisodiy imkoniyatlar, samaradorlik ko'rsatkichlari hamda soliq ma'muriyatchiligi vositalaridan foydalanish samaradorligi, tegishli strategiya va taktikalarni ishlab chiqishga qaratilishi lozim. Soliq salohiyatini oshirishda yuzaga keladigan to'siqlarni bartaraf etish uchun maxsus soliq vositalaridan — soliqlar, subsidiyalar, imtiyozlar shaklida — foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda soliq to'lovchilarning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish, samaradorlikni oshirish va "yashil o'sish"ni ta'minlash asosiy omillar sirasiga kiradi. Ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish va sifatli xizmatlar ko'rsatish orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlar ochiladi. Shu bilan birga, ekologik toza texnologiyalarni targ'ib qilish maqsadida maqsadli investitsiya loyihalarini jalb qilish, ularni moliyalashtirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali davlat budgeti resurslaridan oqilona foydalanish zarur. Davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni rag'batlantiruvchi narx, soliq va subsidiyalar mexanizmini shakllantirish talab etiladi. Yashil yondashuvga ega korxonalar va tarmoqlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun moliyaviy ko'mak zarur. Shu munosabat bilan, davlat yashil investitsiyalar bilan shug'ullanuvchi korxonalar yoki investorlar uchun soliq imtiyozlari, ma'muriy yengilliklar ko'rinishida bevosita moliyaviy yordam ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, davlat ushbu yo'nalishda xususiy investorlar uchun qulay sarmoyaviy muhit yaratishi, yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda siyosiy, moliyaviy va soliq vositalaridan samarali foydalanishi lozim. Yana bir muhim jihat — mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va yashil texnologiyalar bo'yicha kasbiy rivojlanishni ta'minlashdan iboratdir. Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, yashil iqtisodiyotga o'tish kompleks va maqsadli yondashuvni, soliq ma'muriyatchiligining ilg'or shakllarini o'z ichiga olgan konsepsiyalar va strategiyalarni ishlab chiqishni talab etadi. Bu esa, barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishiga qarshi samarali kurashish uchun soliq islohotlarini chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Yashil texnologiyalar va tashabbuslar uchun qulay soliq muhitini yaratish esa, soliq salohiyatini oshirish va uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarori. — URL: <https://lex.uz/ru/docs/6303233>
2. Xudoyqulov S.K., Buranova L.V. (2021). Hududlarning moliyaviy salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarning tasnifi va ahamiyatligi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 5(5), sentyabr-oktyabr. — URL: https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/24_Khudoykulov_Buranova.pdf
3. Jo'rayev X.A. (2023). Hududlarda soliq salohiyatini oshirishning nazariy asoslari. — URL: <https://zenodo.org/records/14196805>
4. Toshmatov Sh.A. (2017). Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat budgeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo'nalishlari. *O'zbekiston moliya sektori rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari* mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2017-yil 10-noyabr. — T.: TDIU. — B. 27–28.
5. Burxonov A.U., Qurbonov X.A. (2018). Hududlarda mahalliy budgetlar daromadlar manba'ini kengaytirish yo'llari (Qashqadaryo viloyati misolida). *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 1(1), yanvar-fevral. — URL: <http://www.iqtisodiyot.uz>
6. Bozorova L.A. (2012). Budget daromadlari barqarorligini ta'minlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yo'nalishlari va soliq siyosati. *Iqtisod va moliya*, №12. — URL: <http://uzscite.uz/wp-content/uploads/2020/06/64-67-1.pdf>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-sonli "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — URL: <https://lex.uz/ru/docs/6333225>
8. Egorova M.A. (2022). Asosiy yo'nalishlar: "yashil" soliqqa tortishni huquqiy tartibga solishning xorijiy tajribasi. *Aktualnye problemy rossiyanskogo prava*, 17(7), 71–79. — DOI: 10.17803/1994-1471.2022.140.7.071-079
9. Adolf C., Röhrig K. (2016). *Green Taxes As a Means of Financing the EU Budget: Policy Options*. The Greens/European Free Alliance. — 76 p. — URL: https://green-budget.eu/wp-content/uploads/2016-10-20_FINAL_PolicyOptions-for-Ecological-European-own-resources.pdf
10. Rahimboyev M. (2025). Qoraqalpog'iston Respublikasida ishsizlik darajasi dinamikasini chegara avtoregressiyalaridan foydalangan holda chiziqli bo'lmagan modellashtirish konsepsiyasi. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(2).
11. Rahimboyev M. (2024). Qoraqalpog'iston Respublikasi mehnat bozori rivojlanish dinamikasining statistik iqtisodiy tahlili. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 25(2), 90–98.
12. Baxtiyorov U.K. (2024). Prioretetnye napravleniya povysheniya nalogovogo potentsiala v usloviyax perekhoda k



“zelenoy” ekonomike. *Ekonomika i Sotsium*, (12-1), 684–689.

13. Baxtiyrov U.K. (2024). Nalogi kak mexanizm stimulirovaniya predprinimatelskoy deyatelnosti. *Ekonomika i Sotsium*, (2-2), 408–413.
14. Baxtiyrov U.K. (2023). Rol nalogovogo potentsiala v razvitii ekonomiki. *Ekonomika i Sotsium*, (12-1), 963–968.
15. Bababekova G.B. (2022). Rol i znachenie tsifrovoy ekonomiki v dalneyshem sovershenstvovanii nalogovogo administrirovaniya. *Ekonomika i Sotsium*, (3-1), 205–211.
16. Bababekova G.B. (2022). Teoreticheskaya sushchnost formirovaniya tseny kak ekonomicheskaya kategoriya. *Ekonomika i Sotsium*, (3-2), 444–448.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
